



O'ZGA TILLI MAKTABLARDA O'ZBEK TILINI O'QITISHDA EVRIKA METODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xushanov Alisher Oydin o'g'li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6785982>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 25th June 2022

KEY WORDS

Vin diogrammasi, amaliy metodologiya, ta'lim o'zlashtirish balansi, umumiy o'zlashtirish, Evrika - baholash tizimi, namunaviy ishchi dastur, fesmu metodi, klaster metodi, amaliy prinsp.

ABSTRACT

Ushbu maqola Respublikamiz hududida joylashgan O'zga tilli O'zbek maktablarida O'zbek tilini o'qitish metodlari orasida Evrika metodining shakily va nazariy bosqichlarini ifoda etib, ta'lim tizimining ushbu bosqichida foydalanilib kelinyotgan boshqa metodlardan farqi haqida so'z yuritilgan.

Ma'lumki, jamiyat hayotini tartibga solish bilan birgalikda xalq tilining tadrijiy va strukturual ravishda rivojlanishida vosita va asos bo'lib xizmat qiladigan ta'lim sohasi bugungi kunda har qachongidan ham yuksak ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi deyish mumki, bugungi kunda O'zga tilli maktablarda O'zbek tilini o'qitish metodikasi xususida olib borilyotgan ishlar va ularning tavsifiy kelib chiqishi maqsadga muvofiq ekanligi bilan ajralib turishi bu quvonarli holatlardan biridir.

„Bugungi kunda O'zga tilli maktablarda O'zbek tilining o'rganilish darajasi va ushbu soha yuzasidan olib borilyotgan sohaviy kommunikativlikni saqlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiluvchi uslublar va metodlar imkoniyat darajasi va qamrovlilik asosida boyib

bormoqda”.[1] Ushbular yuzasidan bugungi kunda talabaga ijtimoiy fan doirasida talabaning bilmiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talab va takliflardan kelib chiqqan holatda „O'zbek tilini o'qitish metodikasi”ni har tomonlama tatbiq etishning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu maqsadda tashkil etiladigan darslarning saviyasi va chiroyli tashkil etilishida asosiy manbaa bo'lib xizmat qiladigan metod va usullardan unumli foydalanish, samara berib kelayotgan metodlarni hududlar kesimida joylashgan boshqa maktablar ya'ni o'zga tilli maktablarda joriy dars uslubi va metodologiyasiga bog'lagan holatda joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilgan holatda O'zga tilli maktablarda O'zbek tilini o'qitish borasida Evrika metodining amaliy



va nazariy shakllarining joriy etilishdagi samaradorligi kishilarni quvontiradi. Avvalo dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar biur qancha tamoyillar asosida talablarga javob bermog'i lozim. „Jumladan: darsda qo'llanilayotgan metodning o'quvchi yoshlar bilimini oshirishdagi samaradorlik darajasining a'lo tarzda bo'lishi, o'zlashtirish chog'ida yuzaga kelgan har qanday muammoni tartibli va maqsadlardan og'oishmagan holatda joriy etish, vazifaviy va strukturaviy amaliyot bosqichlarining talaba yoshlar o'rtasida muvofiqlashtirishning dasturiy amallaribilan tubdan tanishish, oldingi datslarda metodologiya va uslublardan foydalangan holatda tadrijiy hisob – kitoblarga tayangan holda asos va qo'shimchalarga tayangan holda darsning borishini tartibli va ta'lim tizimi normalarida keltirilgan tartib va qonunlarga tartibli ravishda bo'ysungan holatda tubdan o'rganib chiqish va tahlil etish bugungi zamon pedagoglarining asosiy vazifalaridan biri bo'lib xizmat qiladi". [2] Yuqorida keltirilgan asos va qo'shimchalarga yaqqol namuna sifatida Evrika metodini tavsiya qilish mumkin, sababi, iushbu metod yillar va asrlar davomida shakily o'zgarishlarga uchraghanb bo'lsada o'zining ta'lim bosdqiqlari8da tutgan o'rnini yo'qotmagan ekanligini aytish mumkin. Shu boisdan ham Respublikam,iz hududlarida joylashgan O'zga tilli maktablarda O'zbek tilini o'qitish metodologiyasi va uniung asosiy ishchi dasturi tarkibiga Evrika metodining amaliy tarzda qo'shilishi va tatbiq etilishi keng samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunda mavzuning qo'llanilish darajasidan kelib chiqib boshqa mavzu va fan doirqlaridan ham amaliyotga

tatbiq etish yaxshi samara berishi bilan tavsiflanadi.

Evrika metodining O'zga tilli maktablarda O'zbek tilini o'rgatishdagi ahamiyati. „Bilamizki, dars davomida qo'llaniladigan metod va dars o'tish uslublari qandaydir maqsad asosida tanlanadi va bunda asosiy maqsad yanada chuqurroq bilim berish ekanligini ham unutmashlik lozim".[3] Biz tavsiya etayotgan Evrika metodi universal metodlar sirasiga mansub bo'lib, bunda:

- talaba yoshlarning savodxonlik darajasini opshirish davomioyliyida zeriktirib qo'ymaslik;

- umumiy va nazariy so'rov shakllarida Evrika metodi beradigan samaradorlikning o'ziga xosligi;

- struktiv boshqa metodlardan farq qilishi va ixcham, qolaversa, talaba – yoshlar tomonidan tezda o'zlashtirilib olinishini ta'minlab beradigan konstruktiv birliklarga ega bo'lishi;

- o'qituvchining dars soatlariga belgilangan soatlar mobaynida dars mashg'ulotlarini tashkil etishda amaliy rejalashtirilgan dasturning har qanday dars o'tish stiliga muvofiq kelishini ta'minlab berishdagi hamohanglikning mavjud ekanligi;

- sinfda o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarning e'tibor markazidan qolib ketmasliginini texnik va texnologik ta'minlashni o'z asosiy prinsplariga berkitish;

- evrika metodining malakaviy amaliyot davrlarida to'iq muddatli sinovlardan o'tishini ta'minlash borasida kichik ijtimoiy auditoriyalarda qo'llash;

- yalpi ijtimoiy yaxlitlikni ta'minlab berishda asosiy, vazifaviy tizizmning mukammal tarzda nazorat birliklariga muvofiqlashtirishdagi asosiy tadrijiy vositalarning strukturual qismlarini



ta'minlab berishda asosiy manbaa bo'lib xizmat qilishi;

-asosiy maqsad sifatida o'zlashtirishi past bo'lgan talabalarni a'lochilar safiga olib chiqish va ularning bilim darajasini oshirishda qomusiy va malakaviy ishchi dastur vazifasini davriy ravishda o'tab berishi bilan xarakterlanadi, deyish mumkin.

„Aytib o'tganimizdek, Evrika metodi universal metod vazifasini ham bajarishda qo'llanilishi mumkin, shuni aytish mumkinki, boshq metodlar- „klaster“, „fesmu“, „zinama zina“, „bumerang“, „ellikka ellik“, „bir pyus uch“ kabi metodlardan o'zining qo'llanilish darajasi va strukturaviy tuzilishi bilan ajralib turishi ham ahamiyat kasb etadi“.[4]

Evrika metodining boshqa metodlardan farqi. Bugungi zamonaviy va dasturlashtirilgan ta'lim tizimimizda „Vin diogrammasi“ katta ahamiyat kasb etishi bilan bosdha metodlardan ajralib turadi. Bunsu taqqosiylik va farqlilik yetakchi ma'noviy vazifani tashkil etib, o'tilgan yoki yangi o'zlashtirilyotgan

metodlarda amaliy vosita bo'lib xizmat qiladi. Har ikkala metodlarning o'xshash va farqli jihatlari ham mavjud bo'ib, bugungi kunda ular salmog'i taqoslanganda ham dunyoda olimlar tomonidan e'tirof etilyotgan Evrika metodi ta'lim sistemasi hodimlarining e'tiboriga sazovor bo'lib kelyotgani ahamiyatlidir. „Bugungi kunda O'zga tilli maktablarda O'zga tilli maktablarda O'zbek tilini o'rgatish ta'lim tizimimning asosiy dasturiy vositalarini yaratish katta ahamiyat qaratilyotgan masalalar sirasiga mansub bo'lib, evrika metodi va uning samara beruvchi dasturiy shakllari kishilar e'tirofiga sazovor bo'lishi bilar xarakterlanadi“. [5] Boshqa metodlardan Evrika metodining farqli jihati shundaki, talaba – yoshlar ongiga bevosita ta'sir etish, shaxsiy fikrlarning turli shakllarini namoyon bo'lishida umumiy prinsipial dasturiy vosita bo'lib xizmat qiladigan barcha xususiyatlar mavjud ekanligi kishilarni quvontiradi. Quyidagi jadval orqali Evrika metodining turli tamoyil va xususiyatlari bilan tanishishingiz mumkin.

Evrika metodi 1 – jadval.

Evrika metodining o'ziga xos xususiyatlarining nazariy shakllari:	Evrika metodining ta'lim sohasidagi boshqa metodlardan farqli jihatlari haqida:
1. O'zlashtirilishi darajasining kommunikativligi.	1.O'quvchikar o'rtasida ajralib qolishni oldini olish.
2. Ta'lim standart asosida vaqtni taqsimlash.	2.Yaxlitlik va amaliy prinsiplarning mavjud ekanligi.
3. O'quvchilarni baholash shaklining yangicha yo'nalishi. 4.	3.Amaliyotchilar tomonidan beriladigan tavsiflarning qoniqarli ekanligi.



5. Xalqaro ta'lim tizmida berilyotgan e'tiborning yuqori baholanishi.	4. Dasturiy ishchi ta'minotning mavjud ekanligi.
5. Ta'lim tizimida uzoq muddatli amaliy xizmat faoliyatining o'talishi. 6.	5. Zamon talabiga ko'ra o'zgarishlarni keng tatbiq qila olish, metod doirasida.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy va strukturalashgan bugungi ta'lim tizimimizni har tomonlama isloh qilish, uning asosiy nazariy tarkibiy qismlaridan hisoblanadigan O'zga tilli maktablarda

O'zbek tilini o'qitish metodikasining kommunikativ va kompreslashtirilgan shakllarini yanada isloh qilish kelajak avlod ta'limi yo'lida olib borilyotgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. X. Ibragimova, SH. Abdullayeva „Pedagogika nazariyasi” Toshkent – 2008.
2. Nodira Egamberdiyeva „Ijtimoiy pedagogika” Toshkent – 2009.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti „Amaliy tilshunoslik, O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi fanining ishchi dasturi”. Samarqand – 2019.
4. B. To'xliyev, M. SHamsiyeva, T. Ziyodova „O'zbek tili o'qitish metodikasi”. O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashryoti. Toshkent – 2010.